



XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AHOLI BANDLIGI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Asadov Anvar Nasimovich
Osiyo xalqaro universiteti magisrti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda butun dunyo iqtisodiyotida dolzarb bo'lib hisoblangan xizmat ko'rsatish sohasining muhimligi, aholi bandligidagi roli haqida tahlil olib borilgan.

Kalit so'zlar: Marketing, reklama, strategiya, foyda, rentabellik, aholi bandligi, inflyatsiya, kapital, bilimlar iqtisodiyoti, boshqarish.

Xizmat ko'rsatish sohasi bugun butun dunyoda eng serdaromad tarmoq hisoblanadi, mamlakatimizda ham ushbu yo'nalishni yanada rivojlantirish, xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda mazkur yo'nalishda tadbirkorlik faoliyatini boshlamochi bo'lgan tashabbuskorlarni kredit mablag'lari bilan ta'minlashda moliya muassasalari muhim o'rin tutmoqda.

Biz bilamizki, respublikamizda har yili aholi bandligini ta'minlash bo'yicha tasdiqlanadigan dasturlarni amalga oshirish, bo'sh va kvotalanadigan ish o'rinlariga ishga joylashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, o'zini o'zi band qilishning samarali shakllarini rivojlantirish borasida ta'sirchan chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Aholining ishchanlik faolligini va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirishga, ijtimoiy zaif qatlamlar bandligini ta'minlashga, aholi bandligini ta'minlash bo'yicha davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, sifati va tezkorligini oshirishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'larining bo'sh qoldiqlarini tijorat banklaridagi depozitlarga joylashtirishdan tushadigan 50 foiz miqdordagi daromadlar Mehnatni rag'batlantirish jamg'armasiga yo'naltirilgan.

Bugungi kunda aholining farovon va qulay sharoitda hayot kechirishlari uchun xizmatlar sohasida bir qator qulayliklar ta'minlab berilmoqda. Natijada mamlakatimizning qishloq joylarida servis infratuzilmasining rivojlanishi evaziga qishloq aholisining yashash tarzi shahar aholisining yashash tarziga yaqinlashmoqda. Bugungi kun zamon talablaridan kelib chiqib, sohani rivojlantirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2012-2016 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risi"gi hamda "2013-2016 yillarda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari qabul qilindi.

Xizmatlar ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan dasturlar va chora-tadbirlar natijasida sohaning YAIMdagi ulushi sezilarli darajada o'sdi. Ushbu ko'rsatkich 2011 yilda 50,5 % ni tashkil etgan bo'lsa bugungi kunda 54,5% ni tashkil etishi kutilmoqda. Sohada band bo'lganlar bugungi kunda jami band



aholining 50% dan ortig'ini tashkil qiladi. Bugungi kunda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining 80,4 mingtasini yoki 81%i aynan xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritmoqda. Respublika bo'yicha sohada faoliyat yuritayotgan 2 mingdan ortiq korxonalar dastur doirasida begilangan imtiyozlardan foydalanmoqda.

Xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish orqali ishsizlik muammosini, ayniqsa, qishloq aholisi bandligini ta'minlash va butun mamlakat aholisining farovonligini oshirish imkoniyatlari ilmiy asoslab berilgan. Bundan tashqari xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning qulayligi, ixcham va kam xarajat talab etilishi ilmiy asoslangan. Shuningdek, qishloqda xizmat ko'rsatishni rivojlantirishning ilmiy asoslangan konsepsiyasi taklif etilgan.

O'zbekistonda xizmat sohaslarini rag'batlantirilishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining hal qiluvchi strategik omillaridan biri xisoblanadi. Xizmat sohasi korxonalarini umuman olganda, mamlakat bo'yicha iqtisodiy faol korxonalarining asosiy qismini tashkil etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, aynan ko'p sonli korxonalar, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish sohaslarini qamrab oladi. Xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari 80 ming 400 tani yoki umumiy xizmat sohasi korxonalarining 80 foizini tashkil etadi. Bunday turdagi korxonalar aholiga ko'rsatilayotgan moddiy va nomoddiy xizmat turlarini tashkil etadi. Moddiy xizmatlarga, savdo va umumiy ovqatlanish, transport, aloqa, maishiy xizmat va uy-joy komunal xo'jaligi kiradi. Ushbu korxonalar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar insonni turli xil moddiy ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydi. Xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining qulayligi va afzalligi shundaki, uni tashkil etishning osonligi va ixchamligi, ishchi kuchi va mehnat resurslarining oiladan yetishib chiqishi, aniq mijozlar talabi uchun turli xil xizmatlar ko'rsatish, mahaliy xom ashyolardan keng foydalanilishi hamda tovar va xizmatlarni sotish esa mahaliy bozorlarda amalga oshiriladi. Xulosa qilish mumkinki, kichik biznes o'z o'rnini aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohaslarida ham topmoqda. Bugungi kunda madaniy-maishiy uskunalarini ijaraga berish va ta'mirlash ishlari xususan, kiyim kechaklarni ta'mirlash, aholiga yuqori saviyada transport xizmatini ko'rsatish, xonadonlarga zarur xo'jalik buyumlarini yetkazib burish uchun kerakli xizmatlar ko'rsatilmoqda. Hozirgi vaqtda Respublikamizda uy-joy qurilishi va komunal kompleksida islohatlar jarayoni kechishi munosabati bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan aynan shu sohalarda aholining maishiy xizmatga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga aloxida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada kichik korxonalar uy-joy ekspluatatsiyasi, ularni suv, issiqlik manbai, elektr energiyasi bilan ta'minlash bo'yicha ham o'z xizmat turlarini taklif qilishmoqda. Tabiiyki ta'mirlash-qurilish ishlari bilan shug'ullanadigan korxonalar tomonidan, dala hovli madaniy-maishiy imoratlarni qurish va ta'mirlash amalga oshirilmoqda. Aytish joizki, bu ishlar ko'llamida ham aholining uy-joy qurilishi va kommunal xizmat turlariga bo'lgan ehtiyojlari u yoki bu darajada qondirilmoqda.



Xulosa qilib aytganda, xizmat sohasini rivojlantirish, bandlik muammosini ayniqsa, xotin-qizlar, qishloq yoshlarini ish bilan ta'minlash va butun mamlakatimiz aholisining farovonligini oshirish imkoniyati yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 11.05.2021 yildagi PQ-5113-son
3. Sh.Kuvondikov, H.Hasanov Xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishda muhim yo'nalishlar. ILMIIY AXBOROTNOMA. 2017-yil, 4-son (104)

